

**MOHLAROYIM G'AZALLARIDA ISTIORA SAN'ATINING O'RNI***(Sobirova Muzayyana)*

Adabiyotni soʻnmas maʼnaviyat chirogʻi deyishadi. U tarqatgan nur insonni badiiyatga choʻmdiradi. Qoʻqon adabiy muhitida oʻziga xos oʻrin yaratgan Mohlaroyim ham mumtoz adabiyotimizga oʻzining benazir hissasini qoʻshish bilan birgalikda, uni har jihatdan boyitgan. Shoira ijodi badiiyatiga nazar tashlaydigan boʻlsak, badiiy sanʼatlarning oʻziga xos tarzidagi goʻzal namunalarini uchratish mumkin. Jumladan, shoira sheʼriyatida “Istiora” sanʼati alohida ahamiyat kasb etadi. Shu oʻrinda, ushbu sheʼriy sanʼat turiga toʻxtalib oʻtamiz: “Istiora – arabcha soʻz boʻlib, “biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq” degan maʼnoni ifodalab, adabiy asarda soʻzni oʻz maʼnosida emas, balki majoziy bir maʼnoda qoʻllash sanʼati sanaladi. Koʻpincha, bu ikki maʼno oʻzaro oʻxshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbeh sanʼatiga yaqin turadi. Istiora aksar hollarda tashbehi kinoyaga, yaʼni mushabbihi tushirilgan tashbihga toʻgʻri keladi<sup>2</sup>.”

Ey **sarvi noz** qaddi niholingdin oʻrgulay,  
Yoding baxayr, fikr-u xayolingdin oʻrgulay<sup>3</sup>.

Nasriy bayoni:

Ey sarvdek nozli yorim, tik qomatingdan oʻrgilay,  
Xayrli yoding, fikr-u xayolingdan oʻrgilay

Nodiraning bu baytidagi “sarvi noz” oʻz maʼnosida qoʻllanmagan. Shoira sarv daraxtiga emas, balki sarvdek nozli yoriga murojaat qilmoqda. Shuning uchun buni tashbehi kinoya emas, istiora deb hisoblasak boʻladi. Nodira sheʼriyatida bunga oʻxshagan istioraviy birikmalar koʻplab uchraydi:

Ul kunki, **visoling chamanin** sayr etar erdim,  
Manzuri nazar erdi menga ul qadi balo.

Baytdagi “visoling chamani” birikmasi ham oʻz maʼnosida kelgani yoʻq. Visolga chaman (bogʻ) atamasi mazmunan birlashtirib, goʻzal istiora namunasi yaratilgan.

Istiora tuzilishiga koʻra ikki turli boʻladi:

1. Sodda istiora – bir soʻzdan tarkib topadi;
2. Murakkab istiora – ikki va undan ortiq birikmali soʻzlardan tashkil topadi.

Mohlaroyim ijodida har ikki istiora namunasini koʻrish mumkin:

Qizil qondur sirishkim, **zaʼfarondur** chehrai zardim,  
Meni kim koʻrsa farq etmas, xazon birla bahorimdin<sup>4</sup>.

Sariq yuz maʼnosini bildirayotgan “zaʼfarondur” soʻzi sodda istiora boʻlib kelmoqda.

**Vasl uyin** obod qildim, buzdi hijron oqibat,  
**Seli gʻamdin** bu imorat boʻldi vayron oqibat<sup>5</sup>.

“Vasl uyi” va “gʻam seli” murakkab istiora hisoblanadi. Shoiraning Oqibat radifli gʻazalidan olingan bu baytda hijron hamda firoq mavzusiga toʻxtalib oʻtgan. Yaʼniki:

Vasl uyini obod qildim, (ammo) hijron oqibatda (uni) buzdi

<sup>1</sup> QDPI Oʻzbek tili va adabiyoti talabasi

<sup>2</sup> Hojiahmedov. A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qoʻfiya. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. 53-bet

<sup>3</sup> Nodira sheʼriyatidan. – Toshkent: Oʻzbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 76-bet

<sup>4</sup> Nodira sheʼriyatidan. – Toshkent: Oʻzbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 20-bet.

<sup>5</sup> Nodira sheʼriyatidan. – Toshkent: Oʻzbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti. -1979, 24-bet.

Oxir-oqibat g'am selidan bu imorat vayron bo'ldi.

Ushbu baytda qo'llanilgan istioralar orqali lirik qahramon ruhiy holati to'raligicha ochib berilgan. Mumtoz adabiyotda tasvirni tashbeh orqali ifodalashdan, istiora orqali ifodalash kuchliroq va jozibaliroqdir. Quyida keltirilgan baytlar orqali bu san'at namunasi Nodira ijodida o'zgacha jilvalanganligini ko'rishimiz mumkin:

**Shomi furqat** yorsiz men yutmagan qon qolmadi,  
Rahm qilkim emdi qon yutmoqqa imkon qolmadi<sup>6</sup>.

Ushbu baytda lirik qahramon o'z ruhiy kechinmalari, firoq-u ayriliqlarini his etamiz. "Shomi furqat" birikmali istiora orqali shoira ayriliqning shomi, ya'ni oxiriga yetgunga qadar chekkan azoblarini aks ettirmoqda.

Furqat ichra qon yutub g'am birla chektim ohi sard,  
**Kim xazon avroqidek** bo'ldi yuzim hajrida zard<sup>7</sup>.

Ayriliqda qon yutub g'am bilan sovuq oh tortdimki, yuzim (yorning) hajrida xazon varaqlaridek sariq bo'ldi. Bu baytda ham shoiraning ayriliq, hijron qiyinchiliklaridan yuzi xazon varaqlari (barglari) yang'lig' sarg'ayib ketishini istiora orqali go'zal ifodalangan.

Menki **furqat tunlari** ul gul yuzin yod aylaram,  
Bulbuledurman xazon faslida faryod aylaram<sup>8</sup>.

Nodira zamondoshlaridan bo'lgan qozi Abdunabi Xotifning tamomlanmay qolgan voqeaband dostonida keltirilgan fikrlari ham alohida e'tiborga loyiqdir.

"Asar yozishdan maqsadim Nodiraning oqila, fahmli, ilm va so'zning qadriga yetadigan donishmand ayol ekanligini ko'rsatishdir... Umarxon vafotidan so'ng bu iffat sadafining injusi – kunlarni hasrat-u firoq bilan shu tariqa o'tishini noshukrlik deb bildi. U gulistondok Chahorchaman bog'iga borib, Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirib oldi."

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon bo'ladiki, Nodira qancha ayriliq va hijron o'tida qiynalmasin, sabrli, vafodor bo'lishga, Umarxonning ishlarini davom ettirib, mamlakatni boshqarish, obod etishga zukkolik bilan harakat qilgan.

"Istioraning tarkibiga ko'ra turlariga ham to'xtalib o'tsak. Ularning ikki turi farqlanadi: O'xshatilgan narsa yo tushuncha, ya'ni mushabbih tushirilgan istioralar "istiorayi musarraha", o'xshagan narsa, ya'ni mushabbihun bih tushirilgani esa "istiorayi makniyya" deb ataladi<sup>9</sup>."

1. "Aniq bir tushunchani bildiruvchi so'zni uning muayyan jihatlarini tashbihiy munosabatga ko'ra ta'kidlovchi so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalash orqali ro'yobga chiqadi. Mumtoz she'riyatda mahjubani ifodalovchi gul, pari, nigor kabi so'zlarning qo'llanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi." Jumladan, shoiraning quyidagi baytlarida:

Bording nazarimdin, ey **parizod**,  
Men qulni du pora qilmading yod<sup>10</sup>.

parizod so'zi:

Kel beri, to hoki poyingni qilay,  
**To'tiyoyi chashmi giryon**, marhabo<sup>11</sup>.

<sup>6</sup> Nodira she'riyatidan. –Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti. 1979, 73-bet.

<sup>7</sup> Nodira she'riyatidan. –Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 50-bet.

<sup>8</sup> Nodira she'riyatidan. –Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 60-bet.

<sup>9</sup> Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. 54-bet

<sup>10</sup> Nodira she'riyatidan. –Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 48-bet.

<sup>11</sup> Nodira she'riyatidan. –Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 10- bet.

“To‘tiyoyi chashmi giryon” iborasi shu tarzda yuzaga kelgan istioradir.

2. Ayrim so‘zlar ularni ifodalovchi badiiy sinonimlar bilan almashtiriladi. Raz qizi (may), ko‘k g‘azoli (quyoshi), hazordoston (bulbul) kabilar shular jumlasidandir.”

Jilva ko‘rsatdi chu ul **sarvi dilor**o bog‘ aro,

Chashmi qumri bo‘ldi bir chashmi tomosho bog‘ aro<sup>12</sup>

3. Aniq narsa, tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarga u bilan tashbihiy munosabatda bo‘lgan so‘z qo‘shilib istioraviy ifodani hosil qiladi. Masalan: hayot gulshani, gul daftari, mijgon o‘qi, husn bahori, diydor davlati, ko‘ngul maydoni, oraz oftobi, karashma tiyri kabi istioralar shular jumlasidandir. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarga aniq narsa nomini anglatuvchi otlar qo‘shilib istiora hosil qiladi. Har ikki so‘z o‘rtasida esa tashbeh ma‘nosidagi munosabat mavjud bo‘ladi. Malohat mulki, hayo bog‘i, ishq bahori, noz taxti, shom o‘ti, visol sohili, hijron bahri, baxt uyquasi tarzidagi istioralar shular jumlasidandir<sup>13</sup>.”

Misollar:;

Ketdi xushim ul **parivash** jilva og‘oz aylagach,

O‘rtadi **jon pardasin** mutrib navo soz aylagach<sup>14</sup>.

Tiyradur **subhi nashotim**, soqiyo ketur sharob,

**Shomi hijron** zulmatida jomi maydur oftob<sup>15</sup>.

**Sirishkim sahobin** imdodidin dilkushodur muhabbatni dashti

Ko‘ngul dog‘ini etsam bayon, bo‘lur ul biyobonda **lola** paydo<sup>16</sup>.

Ey sarvi sihi bo‘ylik‘im, ey qomati zebo,

Kelkim, **ko‘zum oyinasi** mushtoqi tamosho<sup>17</sup>.

Men telbaga **ko‘zung kiyigi** rom bo‘lmadi,

Vaxshiy sifat ramida g‘izolingdin o‘rgulay.

**Ko‘nglum qushini** band qilur g‘am tufrog‘ina,

Gul xirmanida donai xolingdin o‘rgulay<sup>18</sup>.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Nodira ijodini o‘rganar ekanmiz, badiiy san‘atlardan naqadar yuqori mahorat bilan, o‘z o‘rnida qo‘llaganligining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, yuqorida keltirilgan namunalar shoironing badiiy san‘atlardan mohirona foydalanib, go‘zal g‘azallar yozganligini ko‘rsatadi. Bugungi kunga kelib Mohlaroyim ijodidan bahramand bo‘lgan zukko kitobxonlar badiiy lazzat olib, ma‘naviy ozuqaga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan lug‘atlar:

<sup>12</sup> Nodira she‘riyatidan. –Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 14-bet.

<sup>13</sup> Hojiahmedov. A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. –Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. 54-bet.

<sup>14</sup> Nodira she‘riyatidan. –Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 38-bet.

<sup>15</sup> Nodira she‘riyatidan. –Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 38-bet.

<sup>16</sup> Nodira she‘riyatidan. –Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 12-bet.

<sup>17</sup> Nodira she‘riyatidan. –Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 7-bet.

<sup>18</sup> Nodira she‘riyatidan. –Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1979. 77-bet.

1. Afgor- (birligi figor) majruh, jarohatli, ezilgan, qiynalغان.
2. Avroq- (birligi varoq) varoqlar, sahifalar.
3. Dilkusho – ko’ngilochar, dilni yayratadigan.
4. Imdod – madad, yordam, ko‘mak
5. Mutrib – sozanda, cholg‘uchi, qo‘shiq aytuvchi.
6. Nashot- quvonch, sevinish, hursandlik
7. Oyin – Rasm, qoida, odat; din, maslak, mazhab.
8. Og‘oz – boshlamoq, ibtido.
9. Ram – hurkmoq; tortinmoq.
10. Sahob – bulut.
11. Sard – sovuq.
12. Sirishk – ko‘z.
13. Tiyra-qorong‘i; qora; kelishmovchilik.
14. Zard – sariq, zahil<sup>19</sup> .

---

<sup>19</sup> Rahmonov V. Mumtoz asarlar lug‘ati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2019.